

BOZOR IQTISODIYOTI AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI

Mashrabaliyev Xikmatillo

1 st -year student of Kokand branch of TSTU

E-mail:hmashrabaliyev@gmail.com

Annotatsiya: Bozor iqtisodiyotiga yo'l tutgan har qanday mamlakat bu iqtisodiyotning amal qilishini tushinib olish va oldiga qo'ygan vazifalarini muvaffaqiyatli hal qilish uchun iqtisodiyotning umumiyligi muammolari bo'lgan bir qator savollarga javob topish zarur:

- Nima va qancha miqdorda ishlab chiqarish zarur?
- Qanday texnika va texnologiya bilan ishlab chiqarish zarur?
- Kim uchun ishlab chiqarish zarur? kabi har doim bo'ladigan umumiy muammolar shular jumlasidandir. Mazkur tezisda bozor iqtisodiyoti afzalliklari va kamchiliklari haqida so'z boradi.

Tayanch so'zlar: iqtisodiyot, texnika, ehtiyoj, resurs, foyda, tovar, xarajat, pul massasi, inflatsiya, kapital, firma, korxona, jamiyat, samaradorlik.

Kirish. Nima va qancha miqdorda ishlab chiqarish zarurligi bozor iqtisodiyoti sharoitida, eng avvalo, iqtisodiy resurslar bilan ta'minlash darajasiga, talab va taklif nisbatiga bog'liq. Bunda mavjud bo'lgan resurslar qanday hajmda band qilinishi yoki qaysi qismi ishlab chiqarish jarayonida foydalanishi ham hisobga olinishi lozim. Nima ishlab chiqarish zarur, degan savolga javob berishda korxona zarar ko'rmaslik va foyda olish uchun intilish qoidasiga amal qilishni hisobga olib xulosa chiqarishimiz zarur. Shu bilan birga tovar va xizmatlarning qanday to'plami jamiyatning talablarini to'la qondirishi e'tiborga olinishi kerak. Bozor iqtisodiyoti sharoitida faqat talabi mavjud bo'lgan, binobarin foyda keltirishi mumkin bo'lgan tovarlar ishlab chiqariladi va xizmatlar ko'rsatiladi, zarar keltiradigan tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarilmaydi. Bunda foyda olish yoki olmaslikni korxona o'z

tovarini sotishdan oladigan umumiyligi pul daromadi va uning ishlab chiqarishga qilingan umumiyligi xarajati o`rtasidagi nisbat aniqlaydi. Bozor tizimi puldor iste'molchining xoxishini, korxonalar talabini hisobga oladi, ular uchun ishlab chiqaradi va bu qarorni resurslarni yetkazib beruvchilarga uzatadi hamda ularidan tegishli javob olishga erishadi.

Asosiy qism. Tovarlar qanday ishlab chiqariladi yoki ishlab chiqarish qanday tashkil qilinadi, degan savolga ham bozor iqtisodiyoti sharoitida o`ziga xos javob bo`ladi. Bunda 3 ta uzviy bog`liq masalaga e'tibor beriladi:

1. Alovida tarmoqlar o`rtasida resurslar qanday taqsimlanishiga;
2. Ishlab chiqarishni qanday korxonalar amalga oshira olishiga;
3. Har bir korxona resurslarining qanday uyg`unlashuvini va qanday texnologiyani tanlashiga.

Bozor tizimi, resurslarni, avvalo mahsulotlariga iste'molchi ancha yuqori talab bildiradigan va bu mahsulotlarni ishlab chiqarish foyda keltiradigan tarmoqlarga yo`naltiradi. Foyda bermaydigan tarmoqlar resurslardan mahrum bo`ladi.

Bozor iqtisodiyotida ishlab chiqarishni qanday korxonalar amalga oshira oladi? Qaysi korxona ishlab chiqarishga iqtisodiy jihatdan eng zamonavit texnologiyani qo`llashga intilsa va shunga layoqatli bo`lsa. Zamonaviy texnologiya iqtisodiy samaradorlik bilan tavsiflanadi.

Iqtisodiy samaradorlik quyidagilar bilan bog`liq: mavjud texnologiyaga, ya`ni mahsulot ishlab chiqarishni ta`minlovchi resurslarning muqobil uyg`unlashuviga yoki ishlab chiqarish omillariga, resurslarning narxiga. Boshqacha aytganda, iqtisodiy samaradorlik mahsulotning mavjud hajmini resurslardan eng kam xarajat qilib olishni bildiradi.

Erkin bozor iqtisodiyoti tizimining muhim afzalliklaridan biri shundaki, u shaxsiy erkinlik roliga ustivorlik beradi. Ko`plab ayrim shaxslar va korxonalar iqtisodiy faoliyatini uyg`unlashtirish tashkil qilishning asosiy muammolaridan biridir. Bunday uyg`unlashtirishni amalga oshirishning ikki usuli mavjud. Biri markazdan boshqarish va majbur qilish tadbirlarini qo`llash; ikkinchisi bozor tizimi vositasi orqali ixtiyoriy hamkorlik. Faqat bozor tizimigina iqtisodiy faoliyatni

majbur qilmasdan uyg'unlashtirishga layoqatlidir.

Bozor iqtisodiyoti tadbirkorlik va tanlash erkinligini namoyish qiladi, xususan shu asosda u muvaffaqiyatga erishadi. Bozor iqtisodiyotining yana bir afzalligi shundaki, bunda har bir shaxs, korxona, firma va korporastiyalar tinimsiz harakatda va izlanishda bo'lishadi. Chunki xo'jasizlik, susqashlik, beg'amlik har qanday xo'jalik tizimini xonavayron qilishga olib keladi. Jismoniy va yuridik shaxslar raqobatga bardosh berish, doimiy ravishda foyda olishni ta'minlash uchun kurashadi. Natijada bozor iqtisodiyoti million-million kishilarni xarakatga soladi, ularni boqimandalik kayfiyatidan qutqaradi.

Bozor iqtisodiyotning yuqorida ko'rib chiqilgan asosiy afzallikkari bilan bir qatorda boshqa ko'plab ijobiy jihatlarini ham sanab o'tish mumkin. Jumladan:

- uning ishlab chiqarishning o'zgaruvchan sharoitlariga moslashuvi va ko'nikishining yuqori darajasi;
- fan va texnika yutuqlaridan foydalanish, ularni ishlab chiqarishga joriy etishning jadal sur'ati;
- turli-tuman ehtiyojlarni qondirish, mahsulot sifatini oshirish qobiliyati;
- buzilgan muvozanatni nisbatan tezlik bilan qayta tiklash;
- cheklangan axborot turli resusrarning narx darajasi va ularning sarflanish darajasiga yo'nalgan holda bozor iqtisodiyotining muvaffaqiyatli amal qila olish imkoniyati.

Bozor iqtisodiyotining afzallikkari bilan bir qatorda quyidagi kamchilik va salbiy jihatlari ham mavjud:

- atrof muhitni ishlab chiqarish va boshqa faoliyat turlari ta'siridan muhofaza qilish mexanizmining mavjud emasligi;
- resurslarning qayta tiklanmaydigan turlarini saklash imkoniyatining yo'qligi;
- mehnat qilish bilan bog'liq kafolatlarning mavjud emasligi;
- fanda fundamental va amaliy tadqiqotlarning rivojlanishiga ko'maklashuvning yo'qligi;
- rivojlanishning beqarorligi hamda ishlab chiqarishning pasayishi va inflyastiya jarayonlarining mavjudligi.

Bozor iqtisodiyotining ziddiyatlaridan biri jamiyat a'zolari daromadlaridagi tengsizlikning kuchayib borishi va aholining tabaqalanishi bilan bog'liq. Bunday iqtisodiyot har qanday yuksak darajada rivojlanmasin daromadlar tengsizligini bartaraf qila olmaydi, faqat uni ma'lum darajada yumshatish mumkin.

Tovarlar hajmi bilan pul massasi o'rtasidagi ro'y berib turadigan nomuvofiqlikni bartaraf eta olmasligi ham bozor iqtisodiyotining ziddiyati hisoblanadi va bu pulning qadrsizlanishi - inflyatsiya bilan birga boradi.

Yuqoridagi ziddiyatlar va muammolarni hal qilish uchun resurslar taqsimlanishining samaradorligiga erishish, erkin-raqobatdosh bozor tizimiga o'tish zarur. Chunki raqobat resurslardan oqilona foydalanishni va foydali yangiliklarni kiritishni rag'batlantiradi. Raqobatdosh bozor tizimida taklif beruvchilar, ya'ni ishlab chiqaruvchilar ko'p bo'ladi. Bu esa o'z navbatida tovar narxini pasayishi va uning sifatining ko'tarilishiga xizmat qiladi.

Xulosa. Hozirgi kunda hamma ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish orqali daromad olish va yaxshi hayot kechirish uchun kurashmoqda. Bunday sharoitda sotuvchi va xaridorni birlashtiruvchi mexanizm bu bozor, albatta.

Bozor ishlab chiqaruvchilar va istmolchilar (sotuvchilar va xaridorlar) o'rtasida pul orqali ayrboshlash jarayonida bo'ladigan munosabatlar yig'indisidir. Bozor ob'ekti bozorga, ayrboshlash munosabatlariga jalb qilingan iqtisodiy faoliyatning natijalari va iqtisodiy resurslar, tovar, pul va unga tenglashtirilgan moliyaviy aktivlardir. Bozor sub'ekti bozorning, ayrboshlash munosabatlarining qatnashchilaridir.

Bozor infratuzilmasi ayrboshlash munosabatlariga xizmat qiluvchi muassasaviy tuzilmalardir. Shunday qilib, bozor infratuzilmasi va uning qarab chiqilgan unsurlari barcha bozor turlarining faoliyat ko'rsatishi, hamda davlatlararo iqtisodiy munosabatlarni tartibga solishni ta'minlaydi.

Yuqoridagi muammolar hal qilinsa, aholimiz o'rtasidagi tabaqalanishni oldini olishga va tadbirkorlarga (sotuvchilarga) erkin savdo qilishlariga qulay sharoit yaratgan bo'lar edik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Jorj Samuel Kleyson “ Vavilonlikeng boy odam” asari
2. https://teletype.in/@mutolaa_sehri/J3-GvDfcg
3. https://t.me/s/mutolaa_sehri?before=395
4. https://www.youtube.com/watch?v=t_vTbb9lTnM
5. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Kredit>
6. <https://finlit.uz/uz/articles/credit/credit-is-a-commitment/>
7. Salimov B.T., Muxitdinova U.S., Mustafakulov Sh.I., Salimov B.B. Mikroiqtisodiyot. Draslik. – T.: TDIU, 2005. – 230 b.
8. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash –yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: “O'zbekiston” NMIU, 2017, -48 b.
9. Tursunov N. “Hozirgi zamон raqobat nazariyalari”. Ma'ruzalar matni. – Namangan, 2018, 204 b.
10. I.A.Karimov. “Bizdan ozod va obod Vatan qolsin”. 2-jild. – T.: O'zbekiston, 1996. – 380 bet